

Abduxalilov Shahboz
TDYU Fuqarolik huquqi kafedrası o‘qituvchisi
Абдухалилов Шахбоз
Преподаватель кафедры гражданского права Ташкентского
государственного юридического университета
Shahboz Abduxalilov
Lecturer at the Department of Civil Law, Tashkent State University of Law

KORPORATIV TANGLIKNING IQTISODIY VA HUQUQIY
OQIBATLARI: O‘ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ
КОРПОРАТИВНОГО КРИЗИСА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И
МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА
ECONOMIC AND LEGAL CONSEQUENCES OF CORPORATE
CRISIS: UZBEKISTAN’S EXPERIENCE AND INTERNATIONAL
PRACTICE

Kalit so‘zlar:

Dedlok, korporativ tanglik, korporativ boshqaruv, aksiyadorlar nizosi, veto huquqi, teng ovoz, boshqaruv falaji, moliyaviy zararlar, bevosita zarar, bilvosita zarar, korporativ inqiroz, likvidatsiya, korporativ nizolar, sud amaliyoti, Smith v. Atlantic Properties, Milan Apellyatsiya sudi, investitsiya xavfi, korporativ huquq, aksiyadorlik jamiyati, O‘zbekiston korporativ qonunchiligi.

Ключевые слова

Дедлок, корпоративный тупик, корпоративное управление, корпоративный спор акционеров, право вето, равенство голосов,

управленческий паралич, финансовые убытки, прямые убытки, косвенные убытки, корпоративный кризис, ликвидация, корпоративные споры, судебная практика, *Smith v. Atlantic Properties*, Апелляционный суд Милана, инвестиционный риск, корпоративное право, акционерное общество, корпоративное законодательство Узбекистана.

Keywords

Deadlock, corporate deadlock, corporate governance, shareholder dispute, veto right, equal voting, management paralysis, financial losses, direct loss, indirect loss, corporate crisis, liquidation, corporate disputes, case law, Smith v. Atlantic Properties, Milan Court of Appeal, investment risk, corporate law, joint-stock company, Uzbekistan corporate legislation.

ANNOTATSIYA

Ushbu ish korporativ boshqaruvda keng uchraydigan dedlok (korporativ tanglik) hodisasining mohiyati, kelib chiqish sabablari va uning korporatsiyalar faoliyatiga ko'rsatadigan moliyaviy, huquqiy hamda operatsion ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda dedlokning bevosita va bilvosita moliyaviy zarar turlari yoritilib, korporatsiya uchun eng dolzarb xavf — boshqaruv organlarining falajlanishi oqibatida qaror qabul qilinmasligi ekanligi asoslab beriladi. Ishda Milan Apellyatsiya sudi hamda “*Smith v. Atlantic Properties, Inc.*” kabi xalqaro sud amaliyotlari misolida dedlokning real oqibatlari, xususan, soliq jarimalari, investitsiya oqimining to'xtashi, aktivlar qadrsizlanishi va korporatsiya tugatilishigacha olib borishi mumkinligi huquqiy tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida dedlok yuzaga kelish ehtimolini oshiruvchi boshqaruv mexanizmlari va ularni bartaraf etishning milliy-huquqiy vositalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot yakunida dedlokning korporativ boshqaruv

sifatiga ta'siri umumlashtirilib, korporatsiyalarda barqaror boshqaruvni ta'minlash uchun ushbu hodisani oldini olish bo'yicha taklif va xulosalar beriladi

Kirish

Korporativ munosabatlar rivojlanayotgan bugungi kunda, u orqali kelib chiqadigan muammo hamda kamchiliklarni bartarf etish ham ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Korporativ munosabatlarda ta'sischilar asosan sheriklikka asoslangan holda o'z bizneslarini yuritishni maqsad qiladilar. Biroq, aynan shu omil ular o'rtasida keyinchalik turli tushunmovchiliklar va qarama-qarshiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham bejizga xalqimiz “sheriklik oshiga it boqmas” deb aytishmaydi. Ana shunday muammolardan biri bu dedlokdir. Ushbu jumlaning o'zbek tiliga korporativ tanglik ko'rinishida tarjima qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Muhim qarorlar qabul qilish imkoni yo'qolib, rahbarlar o'rtasida fikr-mulohazalar qarama-qarshi yo'nalishlarga ketgan, hissiy kuchlanish oshgan va operatsion jarayonlar to'xtab qolgan vaziyatni tasavvur qiling — bu sizning kompaniyangizning istiqboli xavf ostida ekanligini anglatadi. Bu korporativ deadlock deb ataladigan hodisa bo'lib, u hatto eng muvaffaqiyatli tashkilotlarni ham inqirozga olib kelishi va strategik rivojlanish o'rniga boshqaruv tikanishiga aylantirishi mumkin. Korporativ tanglik shunchaki kelishmovchilikdan ko'proq narsani anglatadi - bu biznes subyekting mavjudligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan asosiy boshqaruv muvaffaqiyatsizligini anglatadi. Muvaffaqiyatsizlik teng yoki blokirovka qiluvchi ovoz berish huquqiga ega aksiyadorlar yoki direktorlar muhim biznes qarorlari bo'yicha kelishuvga erisha olmaganlarida yuzaga keladi, bu esa oxir-oqibat biznesning qadrsizlanishiga yoki tugatilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan operatsion falajni keltirib chiqaradi¹. Bundan tashqari Oddiy “teng ovoz” bo'yicha kelib chiqadigan boshi berk holat (deadlock) — bu tarafdor va qarshi ovozlar teng bo'lganda va hech kimda hal

¹ Corporate Deadlock Resolution Mechanisms: Safeguarding Business Continuity Through Strategic Governance Planning [Blake Turley](#). Jul 23, 2025

qiluvchi ovoz bo‘lmaganda yuzaga keladi. Bu holat direktorlar kengashi yoki aksiyadorlar darajasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, oxir-oqibat eng muhim daraja — bu aksiyadorlar darajasidir, chunki nazorat paketiga ega aksiyador har doim kengash tarkibini o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bir nechta aksiyadorlar ishtirokidagi turli holatlar boshi berk vaziyatga olib kelishi mumkin, biroq bu yerda kompaniyada ikkita aksiyador bo‘lib, har biri bitta toifadagi oddiy aksiyalarning 50 foiziga egalik qiladigan eng sodda holat ko‘rib chiqiladi². Bunda bir tarafda boshqaruv bo‘yicha ustun mavqe bo‘lmaydi. Ikki tomon teng deb hisoblanadi. Muhim qarorlarni esa faqatgina ikkalasining roziligi olingandagina hal qilish mumkin.

Ushbu jarayon vujudga kelganda qarorlar qabul qilish amalda imkonsiz holatga keladi. Bu turli xildagi muammolarga sabab bo‘ladi. Quyida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy muammolarni ko‘rib chiqamiz.

Korporatsiyada zarur bo‘lgan qarorlarning o‘z vaqtida qabul qilinmasligi natijaida mazkur korporatsiya moliyaviy jihatdan yo‘qotishlarga uchrashi mumkin. Ularni shartli ravishda bevosita va bilvosita moliyaviy yo‘qotishlar toifasiga ajratishimiz mumkin. Bevosita moliyaviy yo‘qotishlar: daromadlarning yo‘qolishi, qo‘shimcha xarajatlarning oshishi va korporatsiya aksiyalari qiymatining pasayishi kabilarda namoyon bo‘lsa, Bilvosita moliyaviy ta’sirlar: Reputatsion zararlar, kadrlar bilan bog‘liq muammolar hamda tashqi investitsiya jalb qilish bilan bog‘liq muammolardir.

Dedlok sharoitida bevosita moliyaviy zarar — bu korporatsiyada qaror qabul qilish to‘xtab qolishi natijasida **darhol yuzaga keladigan, aniq pul ko‘rinishida ifodalanuvchi yo‘qotishlardir**. Dedlok (deadlock) — aksiyadorlar, direktorlar kengashi yoki boshqaruv organlari o‘rtasidagi kelishmovchilik tufayli korporativ boshqaruvning falaj holatga kelishi. Bu juda og‘ir natijalarga olib kelihi

² CORPORATE & COMMERCIAL ALERT. Unlocking stalemates: Solutions for shareholder deadlocks. David Thompson, Muzammil Ahmed and Peter-Wallace Mathebula. ©2024 13545/JUN

mumkin: yangi shartnomalar tuzilmay qoladi, mavjud mijozlar bilan ishlash sekinlashadi, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayoni to'xtaydi. Natijada korporatsiya avtomatik ravishda ishdan chiqadi. Chunki, yuqoridagi holatlar korporatsiyaning normal faoliyatini cheklaydi. Natijada korporatsiya nafaqat o'z kontragentlari oldida majburiyatlari bajarolasligi balki, soliq yoki shunga o'xshash boshqa ma'muriy xarakterdagi nizolarga ham sabab bo'ladi.

Bunday holatda avtomatik ravishda korporatsiya operatsion xarajatlar vujudga keladi. Ya'ni, korporatsiya moliyaviy holatini o'rganish uchun audit yo'llanishi mumkin, kelishmovchiliklarni hal qilish uchun mediator yoki advokatlar jalb qilinishi mumkin. Bular ham qo'shimcha xarajatlarga sabab bo'ladi. Chunki, korporatsiya normal faoliyati davomida moliyaviy holat idan chiqmasa, auditor yo'llash uchun ehtiyoj mavjud bo'lmaydi. Bu kabi xarajatlar fonida daromad yoki ulish olishi lozim bo'lgan shaxslar bunda mahrum bo'lishi yoki oladigan foydasi miqdori kamayishi mumkin. Aynan shunga o'xshash holat bo'yicha Milan Apellyatsiya sudining keysini ko'rib chiqamiz.

Milan apellyatsiya sudi qarorida, 2484-modda, 1-qism, Italiya Fuqarolik kodeksining 2-bandida (korporativ maqsadga erishishning imkonsizligi) va 3-bandida (aksiyadorlar yig'ilishining faoliyat yurita olmasligi) nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, aksiyadorlik jamiyatining tugatilishi va likvidatsiyasi shartlari mavjudligini aniqladi. Bu qaror shunga qaramay qabul qilindiki, aksiyadorlar yig'ilishi rasmiy jihatdan hamon faol edi hamda kompaniyaning yillik moliyaviy hisobotlarini tasdiqlab kelayotgan edi.

Direktorlardan biri tomonidan berilgan shikoyat asosida, Milan apellyatsiya sudi Milan biznes sudi qarorini bekor qildi. Biznes sudi kompaniya tugatilishiga asoslar mavjud emas deb hisoblagan edi, quyidagi dalillarga tayanib:

1. **Kompaniyaning faoliyat sohasi juda keng bo'lib**, uch yillik raqobatga qarshi bitim amal qilgan bo'lsa-da, faoliyatning katta qismi mazkur cheklovdan

ta'sirlanmagan. Sud fikricha, biznes uzluksizligi yo'qotilgan holatda direktorlar 2086-modda asosida biznes "inqirozini" bartaraf etishga oid mexanizmlarni qo'llashlari mumkin edi.

2. **Yillik hisobotlarning muntazam tasdiqlanishi** aksiyadorlar yig'ilishida dedlok yo'qligini anglatishi hamda A va B toifa aksiyadorlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar sud orqali hal etilishi mumkinligi ta'kidlangan.

Apellyatsiya sudining pozitsiyasi

Biroq apellyatsiya sudi boshqa xulosaga keldi. Sudning fikricha, baholash abstrakt tarzda emas, balki **kompaniyaning real operatsion, iqtisodiy-moliyaviy va ishlab chiqarish muhitini hisobga olgan holda** o'tkazilishi lozim.

Sud kompaniya dedlokda ekanini va biznes yuritish yoki bozorga qayta pozitsiyalash bo'yicha real istiqbollar mavjud emasligini ko'rsatuvchi quyidagi asosiy omillarni qayd etdi:

- boshqaruv kengashi darajasida ham, aksiyadorlar yig'ilishida ham mavjud bo'lgan **o'zaro veto holati**, bu esa na biznes faoliyatini rejalashtirishga, na kompaniyani tugatish to'g'risida qaror qabul qilishga imkon bergan; real holatda kompaniya boshqaruvi allaqachon falaj bo'lgan;
- boshqaruv kengashining **korporativ rivojlanish strategiyasi yoki yangi biznes-reja ishlab chiqa olmasligi**;
- turli toifadagi aksiyadorlar o'rtasidagi yuqori darajadagi manfaatlar to'qnashuvi sababli aksiyadorlar yig'ilishining **kompaniya faoliyatini yuritish uchun zarur qarorlarni qabul qila olmasligi**;
- tasdiqlangan moliyaviy hisobotlar aslida **"likvidatsiya balansi"** xarakteriga ega bo'lib, unda:
 - daromadlar nol;
 - xarajatlar esa boshqaruv kengashiga to'lanadigan haq (boshqaruv amalda faol bo'lmasa ham);

- yuridik va notarial xizmatlar;
- administrativ va soliq maslahati;
- auditorlar hay'ati uchun to'lovlar bilan bog'liq bo'lgan sezilarli xarajatlarni o'z ichiga olgan.

Sudning yakuniy bahosi

Shu sharoitlarda kompaniyaning iqtisodiy-moliyaviy holati **muzlagan va qayta tiklanmaydigan** deb topildi. Shuningdek, biznes "inqirozi" rasmiy belgilanmaganligi sababli, Italiya Inqiroz kodeksidagi mexanizmlarni qo'llashning imkoni bo'lmagan.

Shu munosabat bilan, Milan apellyatsiya sudi kompaniyani **tugatilgan deb e'lon qildi va likvidator tayinladi.**³

Ma'lumki, foyda olishni maqsad qilgan korporatsiyalarda uning moliyaviy holati orqali reputatsiyasi ya'ni obro' si belgilanadi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ham korporatsiya shartnoma tuzishda eng avval kotragent haqida ochiq ma'lumotlar portallari orqali ma'lumotlar to'playd. Bular uning ustav kapitali miqdori bo'yicha, insofsiz ijrochilarning yagona reysterida turishi yoki yo'qligi to'g'risida yoki korporatsiya bilan qanday sud ishlari ko'rilganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'lishi mumkin. Agar ushbu ma'lumotlarda tushunmovchiliklar yoki yangi ochilgan iqtisodiy sud ishlari mavjud bo'lgan holatda ular bilan shartnoma imzolash rad etilishi mumkin. Aynan shunga o'xshash holat investitsiya jalb qilish bilan bo'lgan holatda ham kuzatilishi mumkin. Bunda investorlar bitimdan voz kechadi, moliyalashtirish rejasi buzilishi kabi oqibatlariga olib klishi mumkin. Bu yangi faoliyat boshlayotgan korporatsiyalarda jiddiy talofat yetkazadi. Buni **Smith v. Atlantic Properties, Inc.** keysi misolida ko'rish mumkin: 1951 yilda Dr. Louis Wolfson Norwooddagi yer maydonini sotib

³ Deadlock situation a lack of business activities result in the liquidation of a company even if the shareholders meeting . <https://www.rplt.it/en>

olib, uni boshqarish uchun Atlantic Properties Inc. korporatsiyasini tashkil ettiradi. U uch nafar sherigiga 25% ulushdan beradi va korporatsiya ustaviga 80% ovoz talab qilinadigan maxsus qoidani kiritadi. Bu qoidaga ko'ra, har bir aksiyador korporativ qarorlarni veto qilish huquqiga ega edi.

Yillar davomida Dr. Wolfson va qolgan aksiyadorlar o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Wolfson daromadlarni ta'mirlashga yo'naltirishni xohlar, qolgan aksiyadorlar esa dividendlar e'lon qilishni istar edi. Wolfsonning qat'iy veto pozitsiyasi natijasida korporatsiya foydalarini taqsimlamaydi va bu harakat Internal Revenue Service tomonidan "keraksiz daromad to'plash" uchun bir necha yil davomida katta miqdorda jarimalar solinishiga olib keladi.

Aksiyadorlar Wolfsonni sudga beradi. Sud uning o'z vakolatlarini adolatsiz va korporatsiya manfaatlariga zid tarzda ishlatganini aniqlaydi. Natijada Wolfson korporatsiya to'lagan jarimalar va yuridik xarajatlarni qoplashga majbur qilinadi. Sud korporatsiya direktorlariga kelgusida "oqilona dividend siyosati" yuritish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

Ushbu ish aksiyadorning veto huquqidan shaxsiy manfaati uchun foydalanishi fiduciary duty — "eng yuqori darajadagi halollik va sadoqat" tamoyilining buzilishi ekanini ko'rsatadi.⁴

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Korporativ qaror qabul qilish jarayonlarida yuzaga keladigan to'siq — ya'ni "dedlok" muammosi — ayniqsa yopiq (close) korporatsiyalar uchun mavjud bo'lgan huquqiy yechimlar ko'pincha yetarli emasligini ko'rsatadi. Aksiyadorlar yoki direktorlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni ko'pchilik ovozi tamoyili orqali hal qilishni nazarda tutadigan odatiy

⁴ Smith v. Atlantic Properties, Inc. 12 Mass. App. Ct. 201 (1981) 422 N.E.2d 798 PAUL T. SMITH & others vs. ATLANTIC PROPERTIES, INC. & another. Appeals Court of Massachusetts, Suffolk. April 10, 1981. July 6, 1981. Present: HALE, C.J., CUTTER, & BROWN, JJ. Albert F. Cullen, Jr. (David D. Patterson with him) for Louis E. Wolfson. Jeffrey M. Smith for the plaintiffs.

qonunlarida, shu bilan birga, ustav yoki nizomlar orqali quyidagilarga ruxsat beriladi:

1. qarama-qarshi guruhlar o'rtasida ovoz berish huquqlari yoki direktorlar sonining teng bo'linishi;
2. minoritar aksiyadorlarga veto vakolatlarini berish;
3. aksiyadorlar yoki direktorlar qarorlarini qabul qilish uchun yuqori ovoz talablarini belgilash.

Aksiyadorlar kelishuvida ana shu mexanizmlarning mavjudligi korporativ dedlok yuzaga kelishi ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.”⁵. Bundan chiqish mexanizmlari qonunchilikda belgilanmasa, muammolar oqimi davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 2024-yilgi tahrir;
2. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonun, 2014-yil 6-may.;
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
4. Smith v. Atlantic Properties, Inc., 12 Mass. App. Ct. 201 (1981);
5. Atlantic Properties, Inc. v. Commissioner, 62 T.C. 644 (1974);
6. O'Neal, F. H. Close Corporations. 2nd ed;
7. Hetherington, J. “The Minority's Duty of Loyalty in Close Corporations.” Duke Law Journal, 1972;
8. Italian Civil Code, Art. 2086, 2484;
9. Milan Court of Appeals, Corporate Deadlock Case (2023).

⁵ Deadlock in a close corporation: a suggestion for protecting a dissident, co-equal shareholder/ Duke law journal Vol. 1972:653